Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to'plami

SAVDODA MUOMALA XARAJATLARI VA TOVARLAR HISOBI XUSUSIYATLARI

Jamolidinova Sarvinoz – Andijon mashinasozlik instituti 4-kurs “Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi talabasi

Yusupova Malika Botiraliyevna – Iqtisod fanlari nomzodi “Buxgalteriya hisobi va menejment” kafedrasi dotsenti

Jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatlarining bir turi savdo hisoblanib, u ishlab chiqarish sohasini iste’mol sohasi bilan bog‘lovchi bo‘g‘indir. Savdo yaratilgan mahsulotlarni o‘z iste’molchilariga etib borishini ta’minlaydi. Savdo makon va zamonda takror ishlab chiqarishni amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Savdo tovar-pul munosabatlarining majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomondan sotuvchi, ikkinchi tomondan esa sotib oluvchi ishtirok etadi. Tovar-pul munosabatlari majmuasi savdo iqtisodiyotining maxsus tarmog‘i darajasida harakat qilishiga olib keladi. Tabiiyki maxsus tarmoq sifatida savdoda daromadlar va xarajatlarni hisobga olishning xususiyatli jihatlari mavjud.

Xarajatlar - bu aktivlarning kamayishi yoki foydani ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z zimmasiga olish orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir. Xarajatlarni tan olish jarayonida operatsiya amalga oshirilgan sana muhim ahamiyatga egadir:

- agar xarajatlar sotish uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish uchun amalga oshirilgan bo'lsa, ular ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi;

- agar xarajatlar yangi turdagi mahsulotni tajriba-sinov maqsadlarida ishlab chiqarish yoki kelgusidagi operatsion faoliyat uchun amalga oshirilgan bo'lsa, ular kelgusi davr xarajatlari, deb tan olinadi;

- agar mahsulotlar sotilsa, ularga tegishli xarajatlar alohida hisobga olinib, moliyaviy natijalar to'grisidagi hisobotlarga kiritiladi, chunki ular ana shu hisobot davrida ishlab topilgan daromadlarga tegishlidir deb hisoblanadi. Bu tan olish paytida muvofiqlik tamoyilining namoyon bo'lishidir.

Muomala xarajatlari — tovar muomalasi jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan jami sarflar. Muomala xarajatlari mohiyatiga ko‘ra sof va qo‘shimcha xarajatlarga bo‘linadi. Sof xarajatlar tovarlarni bevosita oldisotdi qilish bilan bog‘liq xarajatlardir. Sof xarajatlarga bevosita savdoni uskunalar bilan jihozlash, binolarni isitish, yoritish, savdo xodimlariga haq to‘lash va h. k. xarajatlar kiradi. Qo‘shimcha xarajatlarga tovarlarni tashib iste’molchilarga etkazish, ularni saqlash, qismli tovarni yig‘ish (mas, mebel), ularni joylashtirish, o‘rash, reklama va boshqa xarajatlar kiradi.

Muomala xarajatlarining asosiy ko‘rsatkichi uning darajasi hisoblanadi va tovar aylanmasi hajmiga nisbatan foiz bilan o‘lchanadi. Muomala xarajatlari tovar narxi tarkibiga kiradi. Shuning uchun ham uning darajasi aholi turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Jamolidinova Sarvinoz, Yusupova Malika Botiraliyevna (2023). Savdoda muomala xarajatlari va tovarlar hisobi xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/593

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

materiallar to‘plami

Savdo korxonalari bir birlaridan tovar operatsiyalarini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish bo'yicha ham farq qiladi. Jumladan, ulgurji savdo korxonalaridagi tovar operatsiyalarining xarakterli hususiyatlaridan biri shundaki, bironta tovarmoddiy boylikning kirim va chiqimi bu erda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirmasdan turib amalga oshirilmaydi. Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida, aksincha, har bir tovar operatsiyasini hujjatlashtirib bo'lmaydi. Omborlardan tovarlar faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotiladi, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda esa tovarlar asosan naqd pulga, ayrim hollarda kichik ulgurji shaklda naqdsiz sotilishi mumkin. O'zbekiton Respublikasida buxgalteriya hisobining milliy standartlariga, (BXMS) shu jumladan 4-son BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar” ga, muvofiq tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning ikkita tizimini, ya'ni davriy tizim va uzliksiz tizimini qo'llash mumkin. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatciyalarining yuqorida tavsiflangan hususiyatlarini e'tiborga olgan holda tovar-moddiy boyliklar hisobini uzliksiz tizimini qo'llash zaruriyati va shart- sharoitlari mavjud. Ushbu tizimning mohiyati shundaki tovar-moddiy boyliklarning barcha kirim va chiqimining hisobi boshlang‘ich hujjatlar asosida yuritiladi. Jumladan, tovarlarni sotilishi haridorlar bilan tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan baholarda ularni sotilganligiga guvoxlik beruvchi schyot-fakturalar asosida hisobga olib boriladi.Savdo korxonalarida sotilgan tovarlarning tannarxi ularning kirim hujjatlarida ko'rsatilgan baholari bo'yicha aniq hujjatlar asosida topiladi va hisobga olinadi. Bu, o'z navbatida sotishdan olingan daromadlarni har bir tovar bo'yicha hujjatlar asosda topish imkonini beradi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida har bir tovarning sotilishi qatiy xujjatlashtirish imkonining mavjud bo‘lmasligi ularda tovar moddiy boyliklar hisobining davriy tizimini qo‘llashni taqazo etadi. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri bo'lib tovar-moddiy boyliklarning holati va harakati bo'yicha sintetik va analitik hisobni yuritish hisoblanadi. 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma” ga muvofiq tovarlarning sintetik hisobini barcha savdo korxonalarida quyidagi schyotlarda olib borish nazarda tutilgan. 2910 “Ombordagi tovarlar. Ombordagi tovarlarning qoldig‘i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo'lib tannarx, ya'ni sotib olish bahosi (tayyorlov-transport va boshqa sotib olishga doir xarajatlar bilan birgalikdagi) hisoblanadi. 2920 “Chakana savdodagi tovarlar”. Chakana savdo shoxobchalari (savdo do'kon, palatka, laryok, kioska va boshqalar)dagi tovarlarning qoldig‘i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Chakana savdo korxonalarining chakana savdo shohobchalarida hisob bahosi bo'lib sotish bahosi, ya'ni savdo ustamalari bilan birgalikdagi hisoblangan baho hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А., Мўйдинов Э., Солиев Б., Юсупова М. “Молиявий ҳисоб”, Ўқув қўлланмаси - Тошкент, “Фан технологиялар” нашриёти, 2005 йил, 288 б.
2. Abdullaev A., Yusupova M., Raximova G., “Buxgalteriya hisobi”, Toshkent,

materiallar to‘plami

Darslik - “Iqtisodiyot dunyosi” nashriyoti, 2021 yil, 432 b.
3. 4- sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti “Tovar-moddiy zaxiralar”, https://lex.uz/mact/-1026483

4. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi. Darslik. K.Urazov, V.Voxidov – Toshkent, 2011